

## MUSIQADA TA'LIM

*Nuraliyeva Zuhra Anvarovna*

*Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi, izlanuvchi;*

*Ilmiy rahbar: dotsent R.Z.Xayrov*

**Annotatsiya:** ushbu maqola musiqa san'atida ta'limning o'rni va uning rivojlanishi yo'llari tadqiq qilindi.

**Kalit so'zlari :** musiqa, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at, maktab, o'quv dargoh, ilm;

Yoshlarning ma'naviy yetukligi, ta'lim tarbiyasi davlatning iqtisodiy, aqliy va madaniy salohiyatini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Prezidentimizning yangi 2021 yilni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligi" yili deb e'lon qilgani ham bejizga emas. Musiqa bu ta'lim tarbiyaning eng faol turi hisoblanadi. Chunki musiqa har bir elning milliy qadriyatlarini, tarixini insonning qalbiga yetkazib beruvchi vositadir. Musiqa ta'limi va tarbiyasi o'quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Yosh avlodni yuksak madaniyatli estetik didi yuqori darajada rivojlangan yetuk inson qilib tarbiyalashda musiqiy ta'limning ahamiyati beqiyosdir. Forobiy musiqaga inson axloqini tarbiyalovchi, sihat-salomatligini mustahkamlovchi vosita deb qaragan.

Respublikamizning "Ta'lim to'g'risidavgi Qonuni", «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi boshqa o'quv fanlari qatori «Musiqa madaniyati va san'at » fanining o'qitilishini ham tubdan yangilashni talab etmoqda. «Musiqa madaniyati va san'at» o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Ammo shunday bo'lsada tan olishimiz kerakki musiqa madaniyati va san'ati darslari yetarli darajada e'tibor berilmayapti.

Musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, ya'ni "tili" bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'z bilan, tasviriy san'at ranglar bilan, raqs san'ati harakat bilan ifodalansa, musiqa esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Musiqani faqatgina tinglab idrok etib bo'lmaydi, chunki uning har bir ohangini mazmun-mohiyatini chuqur o'rganmasdan turib, ijro etib ko'rmay turib his etishning iloji yo'q. Xalqaro tajriba korsatkichlari buni isbotlab kelmoqda. Misol uchun Amerika qo'shma shtatlarini olsak, u yerdagi ta'lim tizimi biz o'rgangan tizimdan butkul farq qiladi. O'quv yurtlarining turli xil darajadagilari mavjud bo'lsada ularning

hammasi “maktab” deb yuritiladi. Oliy o’quv yurtidagi bakalavr, magistr darajalarini beruvchi o’quv yurtlari ham oddiygina “yuqori maktab” deb ataladi.

Bizning musiqa maktablarimizdek alohida musiqani o’rgatadigan maktablar u yerda yo’q, lekin bu degani ularda musiqa ta’limi berilmaydi degani emas. Musiqa ta’limi ularda oddiy maktabning o’quv rejasiga kiritilgan. O’quvchi kichik sinflarda unga ajratilgan fanlar bo’yicha dars oladi, ammo o’rta sinflarga o’tganda ular o’zlari qiziqishlariga qarab fanlarning soatini belgilab tanlashadi. Kichik sinflardagi har bir o’quvchi bu yo’nalishni davom ettirmasada, bemalol qaysidir cholg’u asbobida ijro eta oladi. Masalan, kimdir truba, saksafon, fortepiano skripka va hokazoda ijro etishni yoki xor jamoasida kuylashni o’rganadi. O’zlarini ushbu sohada ketishni xoxlayotgan o’quvchi maktabning simfonik orkestrida qatnashishni boshlaydi. Mana shunday asosiy fundamental ta’limni olgan har qaysi o’quvchi ham bu yo’nalishda davom etmaydi. Ammo musiqaning beqiyos tilini o’rganadi, dunyoqarashini kengaytiradi.

Ushbu dunyoning rivojlangan davlatida oliy ta’lim 3 bosqichga bo’linadi: undergraduate (demak boshlang’ich ya’ni bakalavr darajasini beruvchi 4 yil), graduate (2 yil magistratura darajasini beruvchi) hamda postgraduate (3 yillik hozirgi kundagi bizning Doktor PHD darajasini eruvchi). Oliy ta’limga o’tgan har qanday o’quvchi musiqa yo’nalishidan ketsa ketmasa musiqa olamining ranglarini yaxshi ajrata oladi. Ularda musiqiy did ham rivojlangan bo’ladi. Har bir musiqa asbobini ijro etish qay darajada murakkab hamda katta mehnat ortidan kelishini tushungan har bir o’quvchi musiqa ijrochilarini albatta katta hurmat bilan kutib oladi.

Zamonaviy hayotning globallashuv jarayonida jahon hamjamiyatida faol rivojlanayotgan ta’lim sohasidagi xorijiy tajribalarni tahlil qilish dolzarb mavzulardan biridir. AQSH hamda Rossiya davlatlaridagi ta’lim tizimlarini, ya’ni musiqa ta’limini ham qiyosiy tahlil qilish davr talabidir. Musiqaning shaxs tarbiyasiga ta’siri, musiqiy asarlarni idrok etilganda, ulardagi umuminsoniy qadriyatlar shaxsning tafakkuridagi mulkiga aylanishi bu haqiqat. Musiqa san’ati xalqaro muloqotni o’zaro tushunish va yaqinlashtirishga yordam beradi, shuning uchun Qo’shma Shtatlardagi o’rta maktab o’quvchilarining musiqiy ta’lim tajribasini aniqlash hamda mamalakatimizda musiqa ta’limi nazariyasi va amaliyotini boyitish juda muhimdir.

Xorijiy mamlakatlarda hamma o’quv maskanlari bitta o’qub reja va dasturga amal qilinmaydi. Davlat maktablaridan tashqari ularda xususiy maktablar, kollejlari va oliy ta’lim dargohlari mavjud bo’lib, bu dargohlarda o’qituvchilarga keng ijodiy erkinlik berilgan. O’qituvchi ta’lim dargohida o’quvchilarning bilim saviyasiga qarab o’quv rejalariga o’zgartirishlar kiritish huquqiga egadir. Xorij davlatlaridan yana biri Vengriyani misol qilib oladigan bo’lsak musiqiy ta’lim 1 sinfdan 11 sinfgacha davom etadi. Birinchi sinfdan uchinchi sinfgacha musiqaning asosiy nazariyasi hamda jamoa bo’lib kuylash o’rgatiladi. Uchinchi sinfdan boshlab esa har bir o’quvchi o’zi tanlagan cholg’u asbobidan ijro etishni o’rganishni boshlaydi. Umumta’lim maktablari orasida

musiqa-qo`shiqchilik to`liqsiz o`rta maktablari, ya`ni musiqani chuqur o`rganishga qaratilgan umumta`lim maktablari keng joriy etilgan. Ularda birinchi - to`rtinchi sinf o`quvchilari haftada olti soat, beshinchi-yettinchi sinflarda esa to`rt soat musiqa va ikki soat xor mashg`ulotlari bilan shug`ullanadilar. Maktablarda shuningdek, fortepiano, skripka, puflama musiqa cholg`ulari sinflari mavjud. Bunday maktablardagi sinflarda o`quvchilar soni umumta`lim maktab sinfidagi bolalar soniga nisbatan kamroq, ya`ni 26 o`quvchidan ortmaydi. Bundan tashqari, ularda umumta`lim yo`nalishdagi o`quv fanlarining soni ham barcha o`quv fanlaridan bilim berayotgan o`qituvchi musiqa darsini ham o`tadi. Beshinchi - sakkizinchi sinflarda bu darslarini musiqa mutaxassisi olib boradi. Bolalarning musiqa savodini chiqarishda ustoz tomonidan qo`l harakatlari, maxsus imo - ishoralar keng qo`llaniladi. Bundan tashqari musiqa ta`limi chuqur o`rgatiladigan maxsus maktablar ham mavjud. Ushbu maktablar o`quvchilarni kasbga tayyorlaydi, u dargoh bitiruvchilari konservatoriyalarga o`qishni davom ettiradilar.

Ushbu kuzatuvlardan kelib chiqib Rossiya davlati ta`lim tizimi allaqachon musiqa darslarini amaliyot bilan bog`lashga ulgurdi. Hozirgi kunda umumta`lim maktabida tahsil olayotgan o`quvchilar cholg`u asboblarining ijrosini ham o`rganishmoqda. Ushbu ta`lim tizimini yo`lga qo`yish uchun albatta o`rgatish metodikalarni avvalambor ishlab chiqish zarur. Umumta`lim tizimida har bir o`quvchi bilan individual shug`ullanishning iloji yo`qligi barchamizga ma`lum. Shuning uchun cho`lg`u ijrochiligini eng oddiy elementlarini o`quvchida ko`nikma paydo bo`lishi uchun o`rgatish zarur. Ya`ni musiqa maktablari kabi kasbga yo`naltirib butun qonuniyatlarga rioya qiladigan repertuarlarni balki o`quvchining xoxish-istagidan kelib chiqqan kichik asarlar tanlanishi zarur.

Hozirgi kunda butun dunyoda hamda mamlakatimizda Estrada san`atiga katta e`tibor berilmoqda. Ushbu e`tiborning asosiy sababi, yoshlarning bu san`at turiga qiziqish bildirayotganlaridir. Faqat bu san`at turini asl durdona asarlarining targ`ibotiga e`tibor ozgina kam. Saviyasi pastroq bo`lgan musiqa asarlariga yoshlarimizning qulog`i o`rganmasligi lozim. Buning oldini olishning eng samarali yo`li yoshlarni maktab paytidan nafaqat musiqa bilan tanishtirib, yuzaki musiqa olamida sayr qildirish, balki ularni shu asarlarni o`zlari ijro eta oladigan ta`lim tizimini yo`lga qo`yish orqali erishiladi. Bu tizimni yo`lga qo`yishni aynan yoshlar qiziqayotgan yo`nalishdan boshlash kerak deb hisoblaymiz. Bunda nafaqat o`quvchilarni qiziqishlarini ahamiyatga olgan bo`lamiz balki o`qituvchilarga ham biroz yengillik yaratgan bo`lamiz.

Albatta o`quvchi avvalambor musiqiy madaniyati milliy merosi, milliy madaniyatini yoritib beradigan asarlar bilan tanishishdan boshlash lozim. Chunki inson avvalambor o`zligini, kim ekanligini anglamog`i lozim. Shuning uchun ham hozirgi kunda milliy merosimiz bo`lgan maqom san`atining targ`ibotiga davlat darajasida katta e`tibor qaratilyapti. Maktablarda ham maqom san`atini targ`ib qiluvchi dars soatlari

kiritilmoqda. Bundan tashqari o'quvchi asosiy fundamental bilimlarni ya'ni klassik musiqa ta'limi bilan ham yaqindan tanishib chiqishi lozim. Ammo bizning o'quvchilari dunyoqarashi keng yetuk, barkamol avlod bo'lishlari lozim. Buning uchun esa boshqa davlatlar tarixi, madaniyati bilan yaxshilab tanishib chiqishlari zarur.

So'zimizning boshida musiqani o'zining "tili" borligi haqida so'z yuritgandek. Musiqaning o'zining tili bo'lganidek u bir tilda so'zlashmaydi, dunyoda turli tillar bo'lgani kabi musiqaning ham so'zlashuv tillari juda ko'p. Huddi inson qancha ko'p tilni bilsa shuncha dunyoqarashi kengayishi hamda til o'rganish jarayonida juda katta yangiliklar bilan tanishgani kabi musiqiy tillar bilan ya'ni boshqa davlatlar musiqasi hamda zamonaviy Estrada musiqasi bilan tanishish o'quvchilarni ham zamon bilan hamnafas qilib tarbiyalaydi, ham dunyoqarashi keng badiiy didi rivojlangan shaxs qilib yetishtiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Lokshin D. A.D.Kastalskiyning musiqiy va pedagogik qarashlari. "Musiqqa" nashriyoti, 1960. - 87 b.
2. Xormeysterning musiqa papkasi No. 1. Kichik xor. Tuzuvchilar va muharrirlar: Rossiya Federatsiyasining xizmat ko'rsatgan artisti, professor, "Bahor" bolalar xor maktabining xormeysteri .- M: Deko-VS, 2008 yil.
3. G.Sharipova Musiqa va uni o'qitish metodikasi
4. Sh, Ro'ziyev "Xorshunoslik" Toshkent 1987
5. N. Sharafiyeva "Xorshunoslik" Toshkent 1987
6. G. Mansurova "Xorshunoslik va xor jamoalri bilan ishlash uslubiyoti" Toshkent 2008
7. V.L. Jivov "Xor ijrosi" nazariyasi metodologiyasi amaliyoti
8. V.A. Samarin "Xorshunoslik"
9. V. Sokolov "Xor bilan ishlash"
10. R. Tursunov, B. Shomagdiyev "Xor dirijorligi"